

RESEARCH ARTICLE

Urgent Issues In The Translation Of Contemporary Persian Poetry

Iroda Rahmonaliyeva

1st-Year Master's Student at TSUOS, Tashkent, Uzbekistan

VOLUME: Special Issue 2026

PAGE: 156-158

Copyright © 2026 European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, this is an open-access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-Noncommercial-Share Alike 4.0 International License. Licensed under Creative Commons License a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Abstract

This article is devoted to the study of urgent issues in translating Persian poetry into Uzbek. The article analyzes the main challenges arising in the process of poetic translation, including issues related to classical meter and contemporary meter. The study is of scientific and practical significance for translators and literary scholars, contributing to the improvement of quality and harmony between form and content in poetic translation.

KEY WORDS

Iran, poetry, literary translation, arud, the syllabic system of the poem.

INTRODUCTION

Tarjima adabiyotning eng muhim vositalaridan biri bo'lib, madaniyatlararo muloqot va adabiy almashuvda muhim rol o'ynaydi. She'riy tarjima esa tilni, badiiy ruhni, adabiy ifodani, metafora va obrazlarni ham boshqa tilga moslashtirishni talab qiladi. Badiiy tarjimada so'zma-so'z tarjima yetarli emas, tarjimon matn ma'nosi, uslubi va muhitini saqlashga majbur. Shu bois zamonaviy she'riy tarjimada qator dolzarb muammolar yuzaga keladi.

Tarjima ijodiy jarayon hisoblanib, boshqa tilda asarni qayta yaratish san'atidir. Tillar, she'riy tizimlar, vazn, musiqaviy omillar orasida farq mavjud. Biroq mazkur farqlarni tarjimada qayta yaratish orqali tarjima matni yaratiladi [1;196]. She'riy asarlarni tarjima qilish murakkab va nozik jarayon, bunda tarjimon nafaqat til bilimlariga, balki shoirona iste'dodga ham ega bo'lishi zarur. Chunki nasriy matnlarni tarjima qilish asosan mazmunni boshqa tilga to'g'ri yetkazish bilan amalga oshirilsa, she'riy tarjimada mazmun bilan birga poetik shakl va ritmni ham saqlash talab etiladi. She'r inson qalbiga ta'sir qiladigan san'at asari ekan, uning tarjimasi ham o'quvchining qalbida iz qoldirishi lozim. Shu bois, tarjima tilidagi she'riy qonun-qoidalariga rioya qilgan holda, mazmun va badiiy

obrazlarni muvofiqlashtirib yetkazish har doim dolzarb masalalardan biri bo'lib qoladi.

Forsiydan turkiyga tarjima ko'p asrlik tarixga ega bo'lsa-da, bu borada chinakam ma'nodagi tarjimachilik XX asrning ikkinchi yarmida vujudga keldi. Chunki asrlar mobaynida yonma-yon yashab kelgan forsiy va turkiy xalqlar bir-birlarining tillarini tushunganlari, madrasa tahsilini ko'rgan ajdodlarimizning forsiy adabiyotni ham xatm qila olganlari tufayli bunday tarjimalarga uncha ehtiyoj sezilmagan. Qolaversa, bu xalqlarning madaniyati, san'ati yagona tamoyillar, mushtarak an'analar asosida rivojlangan, forsiy va turkiy tillardagi badiiy ijod o'zaro egizak adabiyotlar tarzida kamol topgan. Ma'lumki, o'tmishda tarjima prinsiplari ancha erkin bo'lgan. She'riy asar nasrga ko'chirilgani kabi nasriy asar she'rga solinavergan. (XVI asrda Zahiriddin Muhammad Bobur Hoja Ahror Valiyning "Volidiya" risolasini she'riy tarjima qilgan.) [2;5].

Qadimda fors tilidan o'zbek tiliga tarjimalar salmoqli bo'lgan. Buning sababi, o'rta asrlarda fors tili ilm-fan, adabiyot va diplomatiya tili sifatida keng qo'llanilgan, shuningdek, klassik she'riyat va nasrning madaniy qadri juda yuqori bo'lgan. Firdavsiy, Hofiz, Sa'diy va Rumiy kabi shoirlarning asarlari

nafaqat xalqaro, balki mahalliy madaniy meros sifatida qadrlanib, ularni o'zbek tiliga tarjima qilish ilmiy va badiiy ahamiyatga ega bo'lgan. Shuningdek, Markaziy Osiyo hududida savdo, siyosiy va ilmiy aloqalar rivojlanganligi, muloqot vositalari sifatida fors tilidan keng foydalanilishi tarjimalar sonini oshirgan.

Shu kunga qadar forsiydek kuchli adabiyotning durdonalari Qutb Xorazmiy, Sayfi Saroyi, Alisher Navoiy, Muhammadrizo Ogahiy, Xurshid, Muinzoda, Vasfiy, To'xtasin Jalolov, G'afur G'ulom, Nazarmat, Chustiy, Shoislom Shomammedov, Hamid G'ulom, Jumaniyoz Jabborov, Jamol Kamol, Matnazar Abdulhakim, Asqar Mahkam, Samandar Vohidov, Jonibek Suvonqulov, Ergash Ochilov [3;14], Odil Ikrom, Nargis Shoaliyeva, Gulnoz Mo'minova, Ja'far Muhammad kabi mohir tarjimonlar tomonidan tarjima qilingan.

Hozirgi davrda esa fors zamonaviy she'riyatidan tarjimalar sezilarli darajada kamaygan. Buning sabablarini bir necha jihatdan izohlash mumkin. Masalan, zamonaviy fors tilidagi leksika zamonaviy iboralar bilan boyitilganligi tufayli o'zbek tilida to'g'ri ekvivalent topish muammo bo'lishi mumkin. Yana bir sabab tarjima resurslarining yetishmasligi. Klassik asarlarni tarjima qilishda ko'p ilmiy qo'llanmalar mavjud bo'lsa, zamonaviy adabiyot uchun bu manbalar kam. Ko'pchilik e'tibor bermaydigan yana bir sabab - bozor va talab omili. Nashriyotlar zamonaviy fors asarlarini tarjima qilishni iqtisodiy jihatdan foydali deb hisoblamasligi mumkin, klassik asarlar esa doimiy talabga ega. Asosiy omillardan biri zamonaviy fors she'riyati vakillarining asarlarida aruz vaznidagi she'rlar ustunlik qilishi, bu esa she'riy tarjima jarayonida ma'lum qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Tarjimon nafaqat matn mazmunini, balki vaznni saqlashga ham e'tibor berishi lozim, chunki aruz tizimi har bir bo'g'in va ohang orqali she'rning badiiy ruhini shakllantiradi. Shu bilan birga, barmoq vaznidagi she'rlarni tarjima qilish nisbatan osonroq bo'lsa-da, ko'plab yosh tarjimonlar aruzni chuqur bilmaganligi tufayli, zamonaviy fors she'riyati asarlarining aruz tizimidagi she'rlari ko'pincha tarjima qilinmaydi. Sababi muayyan vazndagi g'azalni boshqa vaznga solib tarjima qilishni tarjima nazariyasi oqlamaydi. Vazn noto'g'ri tanlansa, ma'no har qancha to'g'ri berilmasin, tarjima muvaffaqiyatli hisoblanmaydi. Chunki "vaznni salgina o'zgartirishning o'zi ham tarjimaning dastlabki nuqsoni bo'ladi" [4; 226]

Ehtimol tarjima sohasiga kirib kelayotgan yosh tarjimonlarning vaznda cheklanishi zamonaviy she'riyat barmoqda rivojlanib,

aruzdagi she'rlarning "kamnamoligi" dadir. Aytish kerakki, bizda aruz bo'yicha o'qitish tizimi yetarlicha rivojlanmagan. Ehtimol shuning uchun havaskor ijodkorlarning ham aruzdagi g'azallari asosan sodda ramal va hazaj bahrida yozilmoqda.

L.S.Barxudarov ta'kidlaganki: "Tarjima uchun muhim narsa, eng avvalo, nima ifodalanayotganidir, uning qanday ifodalanishi esa birinchisiga tobe bo'lishi kerak" [5; 35]. Ya'ni, tarjimada mazmun ustuvor ahamiyat kasb etadi, shakl esa shu mazmunga xizmat qilishi zarur. Biroq badiiy asar o'z mohiyatiga ko'ra, mazmun va shaklning ajralmas birligidan iborat bo'lgani sababli, tarjimon faqat mazmunni emas, balki uning badiiy ifoda vositalarini ham hisobga olishi lozim.

Har qanday badiiy asar shakl va mazmunning ajralmas qismidan iborat ekan, tarjimada ham bu yaxlitlikni saqlab qolish talab etiladi. Holbuki, ko'pchilik tarjimonlar asosiy e'tiborini mazmunni qayta yaratishga qaratib, shakl bilan hisoblashmaydilar. Natijada ularning tarjimalari mazmun jihatdan har qanchalik asliyatga qoyilmaqom bo'lmasin, shakl tomondan nomuvofiq bo'ladi [6; 290]. Shuning uchun sifatli she'riy tarjima mazmun, shakl va poetik tizimni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Zamonaviy tarjimonlar aynan shu uyg'unlikni saqlash orqali asarning asl ruhini va estetikasini o'quvchiga yetkazishi kerak.

Zamonaviy fors she'riyatini o'zbek tiliga tarjima qilish masalasi murakkab jarayon bo'lishiga qaramay, uni to'liq sustlashdi yoki e'tibordan chetda qoldi deb bo'lmaydi. So'nggi yillarda bir qator tarjimonlar tomonidan muvaffaqiyatli tarjimalar amalga oshirilayotgani buning yaqqol dalilidir. Jumladan, tarjimon va shoir Odil Ikromning tarjimasida "Qayg'u guli" (Fo'rug' Farruxzod she'rlari tarjimasida) [7], Ja'far Muhammad tarjimasida Qaysar Aminpur [8], Suhrob Sipehriy she'rlari [9], Shahzod Kenjayev tarjimasidagi Muhammadrizo Shafe'iy Kadkaniiy [10], Vosifi Buxtariy she'rlari [11] muvaffaqiyatli o'g'irilgan.

Shunga qaramay, mavjud tarjimalarda muayyan ilmiy-nazariy va uslubiy muammolar hamon dolzarbligicha qolmoqda. Fors she'riyatining ichki musiqiyliigi, aruz tizimining murakkabligi, metaforik qatlamdagi ramziylikni to'liq yetkazish o'zbek tilining ritmik va leksik imkoniyatlari bilan har doim ham to'la moslasha olmaydi. Bu esa tarjimonlardan badiiy sezgirlik, ijodiy moslashuvchanlik va har ikki adabiy an'anani chuqur bilishni talab etadi.

Demak, bugungi holatni baholaganda, fors tilidan zamonaviy

she'riy tarjimalar jarayoni butunlay to'xtab qolgan emas, balki yangi sifat bosqichiga ko'tarilmoqda, desak to'g'ri bo'ladi. Asosiy vazifa tajribalarni ilmiy-nazariy jihatdan umumlashtirish va yosh tarjimonlar uchun metodik asos yaratishdir. Shu yo'l bilan o'zbek va fors adabiy aloqalari nafaqat davom etadi, balki yangi avlod ijodiy tafakkuri uchun mustahkam poydevorga aylanadi.

REFERENCES

- [1] – I.G'ofurov, O.Mo'minov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. – T.: Tafakkur-Bo'stoni, 2012.
- [2] – E.Ochilov. Forsiydan o'zbekchaga she'riy tarjima muammolar – T.: Extremum-Press, 2013.
- [3] – E.Ochilov. Forsiydan o'zbekchaga she'riy tarjima muammolar – T.: Extremum-Press, 2013.
- [4] – Z.Isomiddinov. So'zdan so'zning farqi bor // Tarjima san'ati (Maqolalar to'plami), 6-kitob. – T.: Adabiyot va san'at, 1985.
- [5] – H.Umarov. Shakl va mazmun birligini qayta tiklash // Tarjima madaniyati (Maqolalar to'plami). – T.: O'qituvchi, 1982.
- [6] – E.Ochilov. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. – T.: Innovatsion ziyo, 2022.
- [7] – O.Ikrom. Qayg'u guli. – T.: Akademnashr, 2019.
- [8] – Ziyouz.uz, <https://ziyouz.uz/jahon-sheriyati/eron-sheriyati/qaysar-aminpur/>.
- [9] – Ziyouz.uz, <https://ziyouz.uz/jahon-sheriyati/eron-sheriyati/suhrob-sipehriy/>.
- [10] – Ziyouz.uz, <https://ziyouz.uz/jahon-sheriyati/eron-sheriyati/muhammadrizo-shafeiy-kadkaniy/>.
- [11] – Ziyouz.uz, <https://ziyouz.uz/jahon-sheriyati/eron-sheriyati/vosifi-bohtariy/>.